

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

DEKABR, 2025



ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, dekabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xalilov Oybek, Axadova Diёra

ТРАНСФОРМАЦИЯ МЕТРОЛОГИЧЕСКИХ СИСТЕМ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ
УСИЛЕНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ МЕТРОЛОГИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ 5-14

TARIX FANLARI

Narimov Asadbek

XIVA XONLIGINING XVIII–XIX ASRLARDAGI TASHQI SIYOSATI 15-17

IQTISODIYOT FANLAR

Murtazayev Isabek

SAMARQAND VA NAVOIY VILOYATLARINING MINTAQAVIY SALOHİYATI HAMDA TARMOQ
STRUKTURASINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI 18-21

Pulatov Dilshod, Son Evgeniya

MEDIUM TERM BUDGETING AS A LINK BETWEEN WIDE FISCAL POLICY PURPOSES AND
BUDGETING 22-25

Маджитова Лолахон

ПЕРСПЕКТИВЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ТРАДИЦИОННЫХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТИТУТОВ И
ФИНТЕХ-СТАРТАПОВ 26-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ubbiniyazova Jamila

ЕПИК QAXRAMON TABIATINING DUALLIGI (QORAQALPOQ XALQ DOSTONI «ALPAMIS»
MISOLIDA) 31-34

Хакимова Дилдора

БИЛИНГВИЗМ В МНОГОЭТНИЧНЫХ РЕГИОНАХ УЗБЕКИСТАНА: САМАРКАНД–БУХАРА–
ТАШКЕНТ КАК СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ 35-38

Matmurodov Xojimurod

REY BREDBERINING MARSGA HUYUM ASARI BILVOSITA TARJIMASIDA RANG NOMLARINING
TAHLILI 39-42

Muzaffarov Javlon

JON TOLKIN IJODIDA GERMAN VA SKANDINAV EPOSI KUCHI VA TA'SIRI 43-46

YURIDIK FANLAR

G'ulommamatova Parvina

KRIPTO-AKTIVLAR ORQALI PUL YUVISHGA QARSHI KURASH: XALQARO HUQUQIY
MEXANIZMLAR 47-52

Normurodova Behro'za

IJTIMOY TARMOQLARDAN RAQAMLI DALIL TO'PLASHDA FOYDALANUVCHI HUQUQLARI VA
DAVLAT MANFAATLARI TO'QNASHUVI: XALQARO-HUQUQIY JIHATLAR 53-59

Караходжаева Окилахон

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФОРМ ПАРЛАМЕНТСКОГО КОНТРОЛЯ 60-63

PEDAGOGIKA FANLARI

Haqiqatbekov Zafarbek

OLY TA'LIM TIZIMIDA TALABALAR SOG'LIG'INI SAQLASHDA PSIXOLOGIK MASLAHAT VA
PEDAGOGIK TRENINGLARNING ROLI 64-68

Rustamova Shoxista

TALABALAR TADQIQOT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ONLAYN ILMIY
LOYIHALAR TAJRIBASI 69-73

Turaxodjayeva Zulxumor

RAQAMLI HIKOYACHILIK (DIGITAL STORYTELLING) ASOSIDA AXLOQIY TARBIYA: SINFDAN
TASHQARI FAOLIYATDA QO'LLASH 74-76

Butayev Norbek

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 77-80

Jonibekova Mehriniso

REFLECTIVE PRACTICE AS A WAY OF DEVELOPING THE PROFESSIONAL IDENTITY OF
TEACHERS 81-83

TIBBIYOT FANLARI

Нурмаматова Нугина

ОСОБЕННОСТИ РАННЕЙ ДИАГНОСТИКИ АФФЕКТИВНЫХ РАССТРОЙСТВ ПРИ
ДЕМЕНЦИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И КЛИНИЧЕСКИЙ ВЗГЛЯД 84-86

PSIXOLOGIYA FANLARI

Rahmatullayeva Mushtariy

IJODIY FIKRLASH VA AQLIY INTELLEKT MODELINING UMUMIY XUSUSIYATLARI 87-91

ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Butayev Norbek Tolib o'g'li

Samarqand shahar 5-sonli o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Email: norbekbutayev@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda bo'lajak muhandislarning innovatsion yondashuv asosida ta'lim-tarbiya samardorligini oshirish muammolari o'rganilib, keyingi tadqiqotlar uchun bir qancha vazifalar belgilab olingan.

Kalit so'zlar: Postindustrial jamiyat, umumiy texnik tayyorgarlik darajasi (UTTD), umumiy texnik fanlar (UTF), "o'rganuvchi", "o'quvchi", "o'qitadigan" pozitsiya.

IMPROVEMENT OF METHODOLOGY FOR FORMING STUDENTS' ENGINEERING COMPETENCES ON THE BASIS OF MODERN APPROACHES

Butayev Norbek Tolib o'glu

Teacher of secondary school No. 5 of Samarkand city

Annotation. This thesis studies the problems of increasing the efficiency of education of future engineers based on an innovative approach, and a number of tasks for further research are identified.

Key words: Post-industrial society, general technical training level (GTP), general technical subjects (GTP), "learner", "student", "teaching" position.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2025v1i11/n16>

Buguni postindustrial ya'ni xizmat sohalari, fan va ta'lim rivojlanayotgan axborotlashgan jamiyatning yanada rivojlanishi bilan bog'liq fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi jiddiy o'zgarishlar oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga yangi talablar qo'yadi. Shu sababli kasbiy tayyorgarlikning ushbu talablarga mos keladigan yo'nalishlarini, shuningdek, mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishning moslashuvchan tizimini belgilash masalalari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Mutaxassisning bilimi va aql-zakovati va ularni faoliyat jarayoniga tatbiq etishi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning birinchi pog'onasida bo'lib, uning asosiy masalalari eng yangi texnika va bilimni talab qiluvchi, yuqori texnologiyalardir. Eng yirik texnologik yutuqlar faqat ilg'or fan yutuqlari va uning ishtirokchilarining muhandislik faoliyatiga asoslanadi. Texnik ta'lim tizimi texnik va texnologik jihatni va umuminsoniy qadriyatlarni o'z ichiga olishi kerak [1].

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy muhitning shiddat bilan o'zgarishi, jamiyatning bozor munosabatlariga kirib borishi bilan oliy ta'lim bitiruvchisi o'zining asosiy kapitali – kasbi, mutaxassisligi, malakasini erkin tasarruf qilib, mehnat bozorida faol sub'ekt sifatida faoliyat yuritmoqda. Talaba kelajakda yangi kasblarni yengil o'rganishga yordam beradigan kasbiy ta'limga ega bo'lishi kerak va buning uchun kasbiy ta'lim bugungi kun zamonaviy kasb texnologiyalari bilan integratsiya qilinishi kerak. Bugungi texnologik, raqamli sharoitda ishlab chiqarishning an'anaviy masalalarini hal qila oladigan va muammoli tusga ega favqulodda

holatdagi masalalarni yechib keta oladigan yuqori malakaga ega mutaxassislariga talab kuchaymoqda [2]. Oliy ta'lim bitiruvchisi kasbiy kompetensiya, kommunikativ qobiliyat, tashabbuskorlik, zamonaviy raqamli-axborot texnologiyalari hamda ijodiy fikrlash asosida uzluksiz ta'limga va o'z-o'zini tarbiyalash kabi qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak [3]. Bitiruvchilardagi bu qobiliyatlar bugungi mehnat bozorining raqobatbardoshlik talablariga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash darajasini baholada eng asosiy mezonidir. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida bo'lajak mutaxassisning raqobatbardoshligi modelini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bizning tadqiqot yo'nalishimizdan kelib chiqib, bugungi iqtisodiyotning eng muhim bo'g'inlaridan hisoblangan sanoat, ishlab chiqarish tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash uchun yuqorida aytilgan modelning tarkibiy qismlaridan biri mutaxassisning o'z kasbiga bo'lgan ijodiy munosabat bo'lishi kerak. Bu asosan umumiy texnik tayyorgarlik darajasi (UTTD) bilan ko'rsatiladi, bu esa albatta tabiiy fanlar bilan birga muhandislik ta'limini takomillashtirishni taqozo etadi [4]. Umumiy texnik fanlar (UTF) chuqur o'rgangan va o'zlashtirgan ega bo'lgan muhandis bitiruvchi bugungi yangilanib borayotgan mehnat bozori sharoitlarga tezda moslashib ketadi.

Albatta yuqoridagi yuqori malakaga ega muhandislarni tayyorlash uchun muhandis tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari oldiga ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion ta'lim metodlariga asoslangan yondashuvni talab etmoqda. Bu yondoshuv esa yuqori samarali ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta'limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq. Bu jarayonlarning asosi bo'lib oxirgi uch, o'n yillikda pedagogik ta'lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo'ldi. Pedagogik ta'lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo'nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo'nalishli ta'lim sohasidagi ishlanmalarni, ta'limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta'limni ko'p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko'rsatish mumkin. Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o'z-o'zini faoliyatini yo'lga qo'yadi va buning uchun ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo'lga qo'yish uchun muhim bosqich davri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g'oyasi pedagogik sub'ektivlikni rivojlanishi bilan bog'liq: talaba "o'rganuvchi", "o'quvchi", "o'qitadigan" pozitsiya orqali o'tadi. Agar oliy o'quv yurti "o'qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo'lish maydoni" deb qaralsa, u holda ushbu oliy o'quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta'lim olayotgan talabaning o'z-o'zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o'zini qayta qurish sub'ekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi.

Oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimini ishlab chiqish va joriy etishni kuchli innovatsion jarayon sifatida belgilash mumkin. Ushbu masalada G'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi har tomonlama tahlil etilib, baho berildi va O'zbekiston Respublikasi sharoitida o'zimizning mentalitetimizdan kelib chiqib, oliy ta'limning o'ziga xos ko'p bosqichli tizimi yaratildi. Oliy pedagogik ta'limni ko'p bosqichli mazmuni bizning sharoitimizda ikki darajali model:

- umumiy (bazaviy-bakalaviriya va to'liq (magistratura) ko'rinishida amalga oshirilib, har biri o'ziga avtonom hisoblanadi;
- yaxlit tizim ko'rinishiga ega; bozor iqtisodiyoti talablariga to'la javob beradi;
- ta'limni ko'pgina yo'llari orqali egallash imkonini beradi;

- o'qiyotganlarni akademik va kasbiy yo'naltirishga rag'batlantiradi;
- o'z-o'zini anglash, uning qimmatli yo'nalishlarini va hayot tarzini belgilash asosida shaxs rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratib beradi.

O'qitish asosiga ta'limiy-kasbiy dasturlar qo'yilgan bo'lib, ular beshta blok-model prinsipidan tashkil topgan: ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar fanlar, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy fanlar, ixtisoslik fanlari hamda qo'shimcha fanlar tizimidan iborat. Texnologik jihatidan kasbiy ta'limning mazmuni, metodlari va metodikasini tanlashga madaniy yondashuv bilan bevosita bog'liq.

Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish ta'lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-birlari bilan shunday uzviy aloqadagi, ulardan birini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Xo'sh, nimani nimadan boshlash kerak? Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda savol tug'iladi: nimani (qanday mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchisiz yoki o'rgatmoqchisiz? O'rgatish ham, o'rganish ham asosiy maqsadga yo'naltirilgan ta'lim ob'ekti va oxirgi natija mahsuli bo'lmish ta'lim mazmuniga bog'liq. Har xil mazmun uni o'zlashtirishning o'ziga xos usullari bilan farq qilganligi uchun o'rganishning qanday bo'lishi uning mazmuniga bog'liq, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi o'rgatuvchiga bog'liq. Shunday qilib, didaktik tafakkur - bu o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir. O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi. Shu boisdan ham "pedagogik texnologiya", "didaktik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" atamaları qatoridan "pedagogik innovatsiyalar" atamasi ham mustahkam o'rin olmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan tarzda o'rgatish, o'rganishda ta'lim mazmuni asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun ham, o'z oldimizga Davlat ta'lim standartlarini yaratish birinchi galdagi vazifa qilib qo'yildi.

Davlat ta'lim standartlari-bu o'quvchilar bilim saviyasining minimal darajasini belgilaydi, bu darajadan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun ma'lum izlanish hamda tashabbus lozim, pedagogik innovatsiyalarni yaratish, shuningdek, ularni boshqarish avvalam bor, ana shu dolzarb vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o'rganish, tahlillar ostida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llash tartibini belgilab beradigan tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Parmonov A. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarning ilmiy-texnik ijodkorlik faoliyatini tarbiyalashning psixologik-pedagogik asoslari //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 471-476.
2. Parmonov A. Talabalarga zamonaviy ta'limni raqamli texnologiyalar yordamida berishning pedagogik zarurati //Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 202-204.
3. Abdutolib P. ORGANIZATIONAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF INFORMATION AND TECHNICAL COMPETENCE OF STUDENTS ON THE EXAMPLE OF THEORETICAL MECHANICS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2023. – Т. 4. – №. 05. – С. 28-32.

4. Abdutolib P. PEDAGOGICAL ESSENCE AND MODEL OF FORMATION OF INFORMATION AND TECHNICAL COMPETENCE IN APPLIED MATHEMATICS STUDENTS IN BACHELOR STUDIES //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – T. 3. – №. 05. – C. 26-34.
5. O'g'li P. A. A. THE IMPORTANCE OF FORMING INFORMATION-TECHNICAL COMPETENCE IN THE STUDENTS OF APPLIED MATHEMATICS INTERESTING IN THE FIELD OF PROFESSIONAL ACTIVITY //Next Scientists Conferences. – 2023. – C. 47-49.
6. Abduvahob o'g'li P. A. NAZARIY MEXANIKA FANINI O'QITISHDA TEXNIK-INFORMATSION KOMPETENSIYALARIGA QO'YILADIGAN MALAKA TALABLARI VA MAZMUNI //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 662-664.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, dekabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
1-jild, 11-son (dekabr, 2025-yil). – 92 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 15-dekabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.